

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH: O'LCHOVLAR VA BAHOLASH MEZONLARI

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Bank ish” kafedrasи o’qituvchisi

Abduraxmonov Alimardon

SamISI, “Bank-moliya xizmatlari” fakulteti
talabasi **Norboyev Jamshid**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyatida samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash, ularni o'lchash va baholash mezonlarini ilmiy-nazariy hamda amaliy nuqtai nazardan tahlil qilishga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotda O'zbekiston tijorat banklari faoliyati asosida samaradorlikni aniqlovchi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar, zamonaviy baholash uslublari va xalqaro tajribalar ko'rib chiqilgan. Raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalarning bank xizmatlari sifatiga ta'siri, xatarlarni boshqarishdagi o'lchov tizimlari va ichki nazorat mexanizmlarining samaradorlikka ta'siri chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada bank sektorining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga doir xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, samaradorlik ko'rsatkichlari, moliyaviy barqarorlik, raqamli transformatsiya, bank faoliyati, baholash mezonlari, risklarni boshqarish, iqtisodiy tahlil, o'lchov metodikasi, bank sektori.

АННОТАЦИЯ

В данной статье основное внимание уделяется анализу критериев определения, измерения и оценки показателей эффективности деятельности коммерческих банков с научно-теоретической и практической точек зрения. В исследовании были рассмотрены основные финансовые показатели, современные методы оценки и международный опыт, определяющие эффективность деятельности коммерческих банков Узбекистана. Глубоко

проанализировано влияние цифровой трансформации и инновационных технологий на качество банковских услуг, влияние измерительных систем и механизмов внутреннего контроля в управлении рисками на эффективность. Также в статье сформулированы выводы и предложения по обеспечению долгосрочной устойчивости банковского сектора.

Ключевые слова: коммерческие банки, показатели эффективности, финансовая устойчивость, цифровая трансформация, банковское дело, критерии оценки, управление рисками, экономический анализ, методология измерения, банковский сектор.

ABSTRACT

This article focuses on determining performance indicators in the activities of commercial banks, analyzing the criteria for their measurement and assessment from a scientific-theoretical and practical point of view. The study examined the main financial indicators, modern assessment methods and international experiments that determine efficiency based on the activities of commercial banks of Uzbekistan. The impact of digital transformation and innovative technologies on the quality of banking services, the impact of measurement systems and internal control mechanisms in risk management on efficiency have been analyzed in depth. The article also developed conclusions and proposals on ensuring the long-term stability of the banking sector.

Keywords: commercial banks, Performance Indicators, Financial Stability, Digital Transformation, Banking, evaluation criteria, risk management, Economic Analysis, measurement methodology, banking sector.

KIRISH

Global iqtisodiy tizimda moliyaviy barqarorlik va samaradorlik asosiy indikatorlardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu borada tijorat banklari iqtisodiyotning “qon aylanish tizimi” vazifasini bajarib, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va investitsion loyihalarni moliyalashtirishda asosiy moliyaviy vositachilardan biri sanaladi. Ayniqsa, bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida tijorat banklarining samarali faoliyat yuritishi mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va moliyaviy

barqarorligining asosiy kafolatidir. Shu sababli bank faoliyatini baholashda faqatgina foyda olish yoki kredit portfeli hajmi bilan emas, balki keng qamrovli samaradorlik ko‘rsatkichlari tizimi orqali tahlil qilish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bank sektorida samaradorlikni baholash mezonlari va o‘lchovlari faqat ichki audit va moliyaviy hisobotlar bilan cheklanib qolmasdan, tashqi iqtisodiy muhit, raqamli texnologiyalar ta’siri, bozor raqobatbardoshligi hamda mijozlar ehtiyojining o‘zgaruvchanligini ham o‘z ichiga oladi. Shu bois, bu mavzu nafaqat iqtisodchilar, balki moliyachilar, analistiklar va regulatorlar uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, 2022-yildan boshlab bank tizimida joriy etilgan yangicha yondashuvlar, xususan, ESG tamoyillari, raqamli banking, moliyaviy inkluzivlik va barqarorlik ko‘rsatkichlariga urg‘u berilishi mavzuni o‘rganish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan moliyaviy sektor islohotlari, xususan, tijorat banklarini xususiylashtirish, bank xizmatlarining raqamlashtirilishi, kapital yetarligini oshirishga qaratilgan siyosatlar samaradorlik tahlilini mutlaqo yangi darajaga olib chiqdi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yilda imzolangan “Bank tizimini raqamlashtirish va investitsion jozibadorligini oshirish to‘g‘risida”gi qaror asosida banklar faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligi bo‘yicha yangi standartlar joriy etildi. Ushbu hujjatlar doirasida bank samaradorligini o‘lchash mezonlariga ko‘rsatkichlarning nisbiy tahlili, risklarni boshqarish samaradorligi, mijozlar ehtiyojini qondirish darjasи, operatsion xarajatlarni kamaytirish darjasи kiritildi.

Mavzuga doir xalqaro tajribalar ham ko‘rsatmoqdaki, bank samaradorligini baholashda faqatgina an’anaviy ko‘rsatkichlar (aktiv rentabelligi, kapital rentabelligi, foizlar farqi va b.) emas, balki noan’anaviy ko‘rsatkichlar – mijozlar sodiqligi indeksi, xizmatlar innovatsionligi, ekologik va ijtimoiy mas’uliyat, inson resurslari boshqaruvi kabi omillar ham keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, 2022–2024-yillarda Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, EBRD, Moody’s va Fitch agentliklari tomonidan e’tirof etilganidek, banklarning barqaror faoliyati ular tomonidan qanchalik tez va moslashuvchan raqamli yechimlarni joriy etishi bilan bog‘liq bo‘lmoqda. Bu esa,

tijorat banklari samaradorligini o‘lchash usullarini zamonaviylashtirish va kontekstual yondashuvni talab qiladi. Bundan tashqari, bugungi global iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan notinchliklar – jumladan, geosiyosiy tahdidlar, inflyatsiya bosimi, yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar banklar faoliyatining ishonchliligi va moslashuvchanligini sinovdan o‘tkazmoqda. Ushbu sharoitda banklar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning qanday natijalar berayotgani, risklarni boshqarish samaradorligi va qaror qabul qilish mexanizmlarining aniqligi muhim rol o‘ynaydi. Bu esa bank tizimining strategik tahlil vositalarini kengaytirishni talab etadi. Natijada banklar samaradorligini baholash nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlar, balki institutsional, ijtimoiy va texnologik ko‘rsatkichlar asosida ham olib borilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTALR TAHLILI

Ibrohimov T.S. – “Tijorat banklarining moliyaviy samaradorligini baholash: zamonaviy yondashuvlar” (2022). Mazkur ilmiy ishda muallif tijorat banklarining moliyaviy samaradorligini baholashda qo‘llanilayotgan an’anaviy va zamonaviy ko‘rsatkichlar tahlilini chuqur o‘rgangan. Muallifning asosiy e’tibori ko‘proq aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), foizlar marjasи, operatsion samaradorlik ko‘rsatkichlariga qaratilgan. Kitobda O‘zbekistondagi yirik tijorat banklari misolida ushbu ko‘rsatkichlarning o‘zgaruvchanligi 2020–2022 yillar oralig‘ida tahlil qilinib, pandemiya davrida ko‘rsatkichlar pasaygani, lekin raqamli xizmatlar joriy qilinishi hisobiga ijobiy tendensiya yuzaga kelgani qayd etilgan. Tahlilda banklar samaradorligini baholashda ommaviy statistik ko‘rsatkichlardan tashqari, bozor segmentatsiyasi, mijozlar xatti-harakati, xizmat ko‘rsatish tezligi kabi omillar ham e’tiborga olinishi kerakligi ko‘rsatilgan. Ushbu ishning mavzu uchun ahamiyati – o‘lchovlarni kengaytirish zarurligini asosli misollar bilan ochib bergenidadir.

Muxitdinov B.X. – “Bank tizimida raqamli texnologiyalarning samaradorlikka ta’siri” (2023). Mazkur asar raqamlashtirish va fintech texnologiyalarining bank samaradorligiga ta’sirini chuqur yoritadi. Muxitdinov tijorat banklarida innovatsion mahsulotlar (mobil ilovalar, masofaviy xizmatlar, onlayn to‘lov tizimlari) joriy

qilinishi bilan operatsion xarajatlar sezilarli kamayganini va foyda ko'rsatkichlari ortganini dalillar bilan ko'rsatadi. Tahlil qismida "Asaka bank", "Ipoteka bank" va "Xalq banki" kabi muayyan subyektlar misolida 2021–2023 yillardagi raqamli xizmatlar hajmi, mijozlar soni, va foydalanuvchilar xatti-harakati asosida samaradorlik dinamikasi o'r ganilgan. Ushbu manbaning mavzuga aloqador jihat – samaradorlik mezonlarini yangicha texnologik indikatorlar bilan boyitish, ayniqsa mijozlar tajribasi (CX), platforma tezligi, foydalanish qulayligi kabi ko'rsatkichlarni taklif etishidadir.

Jo'rayev Z.A. – "Bank sektorida samaradorlikni o'lchashda benchmarking yondashuvi" (2024). Jo'rayev o'z tadqiqotida benchmarking – ya'ni eng yaxshi amaliyotlarni o'r ganish orqali samaradorlikni o'lchash metodologiyasini asoslagan. Utijorat banklari o'rtasida ichki va xalqaro benchmarking metodlarini taqqoslab, raqobatbardoshlik indikatorlari asosida baholashning afzalliklarini ko'rsatadi. Jumladan, u Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) va Moody's agentligi tavsiya etgan samaradorlik ko'rsatkichlarini O'zbekiston banklariga moslashtirgan. Tahlil davomida "Hamkorbank", "Kapitalbank" va "Anorbank" kabi xususiy banklarning faoliyat ko'rsatkichlari asosida mehnat unum dorligi, daromad/aktivlar nisbati, xizmat sifati kabi mezonlar solishtirilgan. Ushbu ish mavzu uchun qimmatli bo'lib, banklar o'z pozitsiyalarini qanday aniqlashi va strategik ustuvorliklarini qanday belgilashi kerakligini ilmiy asosda yoritadi.

Yusupov D.R. – "Tijorat banklarining moliyaviy tahlilini takomillashtirishda AI vositalari roli" (2023). Yusupov ushbu maqolasida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining moliyaviy tahlilga ta'sirini o'r ganadi. Muallif tijorat banklarida AI asosidagi analistik modellarni joriy qilish orqali risklarni tahlil qilish, kredit reytingini aniqlash, foiz stavkalarini dinamik o'zgartirish, shuningdek, moliyaviy ko'rsatkichlarni real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Asarda O'zbekiston bank tizimidagi AI infratuzilmasining hozirgi holati va mayjud cheklovlari ham tahlil qilingan. Bu adabiyot maqolamiz mavzusi doirasida shuning uchun dolzarbki, bank samaradorligini endilikda an'anaviy ko'rsatkichlar emas, balki algoritmik prognozlash va model tahlili vositalari asosida baholash taklif qilinmoqda.

Nazarov R.I. – “Bank faoliyatining institutsional samaradorlik ko‘rsatkichlari” (2022). Nazarov o‘z ilmiy ishida banklar samaradorligini faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki institutsional indikatorlar – ya’ni boshqaruv sifati, mijozlar ishonchi, kadrlar salohiyati, shaffoflik darajasi asosida baholashni taklif etadi. Tadqiqotda tijorat banklarining tashkiliy tuzilmasi, qaror qabul qilish tezligi, filiallar o‘rtasidagi operatsion uyg‘unlik kabi ko‘rsatkichlar asosida tizimli tahlil olib borilgan. Muallif O‘zbekiston banklarida institutsional ko‘rsatkichlarni baholovchi mustaqil platformalarni yaratish zarurligini ilgari surgan. Ushbu yondashuv bank faoliyatining sifati va mijozlar bilan aloqalar samaradorligini aniqlashda foydalidir.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Bank tizimi har qanday davlat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xususan, tijorat banklari moliyaviy resurslarning aylanishi, investitsiya faolligining ta’milanishi va xo‘jalik subyektlari faoliyatining moliyaviy qo’llab-quvvatlanishida yetakchi o‘rin tutadi. Shu bois, ularning samarador faoliyat yuritishi nafaqat banklar darajasida, balki makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar darajasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, raqamli texnologiyalar asosida bank xizmatlari sifatini yuksaltirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar fonida tijorat banklari faoliyatini baholash metodikasini takomillashtirish masalasi dolzarb sanaladi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — tijorat banklari faoliyatining samaradorligini o‘lchashda foydalaniladigan ko‘rsatkichlar va baholash mezonlarini tizimli tahlil qilish, mavjud yondashuvlarni takomillashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv asosida banklar faoliyatini baholashning nazariy, amaliy va analitik jihatlari chuqur o‘rganiladi.

Tadqiqotning nazariy asosini bank ishi, moliyaviy menejment, iqtisodiy samaradorlik nazariyalari, resurslardan foydalanish samaradorligi, foydalilik va rentabellik nazariyalari tashkil etadi. Ayniqsa, tijorat banklari faoliyatini baholashda keng qo’llaniladigan CAMELS, DuPont, DEA (Data Envelopment Analysis) va

balansli ko'rsatkichlar tizimi (Balanced Scorecard) kabi xalqaro usullar asosiy nazariy yo'naliish sifatida o'r ganilgan. Ular orqali banklarning moliyaviy holati, operatsion faoliyati, bozor faoliyati, ichki boshqaruvin sifati kabi muhim jihatlarni baholash imkonini beruvchi indikatorlar tizimi shakllantirilgan. Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida tijorat banklarining faoliyati — bank kapitali, aktivlari, likvidlik darajasi, risklarni boshqarish tizimi, foydalilik darajasi, xizmatlar sifati va mijozlar ehtiyojini qondirish kabi ko'plab mezonlar orqali baholangan. Bu esa bank faoliyatining nafaqat moliyaviy, balki strategik va ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlarini ham qamrab olishga imkon beradi. Tadqiqot ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklarining faoliyati tanlangan. Predmet esa — ushbu banklar faoliyatini baholashda foydalaniladigan o'lchovlar va samaradorlik mezonlarining tizimi, ularning aniqlanishi, qo'llanilishi va natijalari hisoblanadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, u tijorat banklari samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida bir necha asosiy metodlar qo'llanildi:

- Tizimli tahlil: Bank faoliyatini yaxlit tizim sifatida o'r ganish, turli bo'g'inlar o'rta sidagi bog'liqlik va ta'sir mexanizmlarini aniqlashda ishlatiladi.
- Moliyaviy tahlil: Asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar – aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), sof foiz marjası (NIM), xarajatlar/daromadlar nisbati (CIR) va boshqalar orqali tahlil olib boriladi.
- Statistik tahlil: Banklarning ko'p yillik faoliyati asosida empirik ma'lumotlarni yig'ish, ularni guruhash, solishtirish va natijalar asosida xulosalar chiqarish usuli.
- Korrelyatsion-regression tahlil: Bank samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar o'rta sidagi bog'liqlik darajasini aniqlash, statistik model asosida prognozlar ishlab chiqish.
- Ekspert baholash: Soha mutaxassislari fikrlari asosida ayrim sifat jihatlarining baholanishi, mezonlar ierarxiyasi shakllantirilishi.

Shuningdek, benchmarking (eng yaxshi amaliyotlar bilan solishtirish) usuli orqali ayrim banklarning ilg‘or tajribasi aniqlanib, ularning samaradorlikka ta’siri baholandi.

Tadqiqot davomida tijorat banklari faoliyatining samaradorligini o‘lchashda foydalaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar quyidagi guruhlarga ajratildi:

Moliyaviy ko‘rsatkichlar:

- Aktivlar rentabelligi (ROA)
- Kapital rentabelligi (ROE)
- Sof foiz daromadlari marjasi (NIM)
- Xarajatlar/daromadlar nisbati (Cost to Income Ratio)
- Foya ko‘rsatkichi (Net Profit Margin)

Likvidlik va xavflilik ko‘rsatkichlari:

- Joriy likvidlik koeffitsienti
- Uzun muddatli likvidlik ko‘rsatkichi
- Kredit portfelining sifat darajasi
- Kreditlar va depozitlar nisbati (Loan-to-Deposit Ratio)

Operatsion samaradorlik ko‘rsatkichlari:

- Xodimlar boshiga to‘g‘ri keladigan foya
- Filiallar soniga nisbatan tushum darajasi
- Bank xizmatlari soni va ularning daromadga ta’siri
- Texnologik avtomatlashtirish ko‘rsatkichi

Bozor va raqobat ko‘rsatkichlari:

- Mijozlar sonining o‘sishi
- Bozor ulushi
- Raqobatbardoshlik indeksi
- Mijozlar sodiqligi va xizmatlar sifati bo‘yicha reyting

Ushbu ko‘rsatkichlar asosida har bir bank uchun integrallashgan samaradorlik indeksi aniqlash va uni boshqa banklar bilan solishtirish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqotning amaliy qismi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Davlat statistika qo‘mitasi, tijorat banklarining ochiq yillik hisobotlari, xalqaro

moliyaviy tashkilotlar (Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi) axborotlari asosida 2020–2024 yillar davomidagi bank faoliyatiga doir ma'lumotlar tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, banklar faoliyatidagi asosiy tendensiyalar, samaradorlikni belgilovchi omillar va muammoli nuqtalar aniqlab berildi. Tadqiqot doirasida ayrim tijorat banklari bo‘yicha statistik ma'lumotlarning to‘liq ochilmaganligi, xalqaro metodikalarning ayrim elementlarini to‘liq qo‘llash imkoniyatining mavjud emasligi, shuningdek, sifat ko‘rsatkichlarining yetarlicha raqamli shaklda ifodalanmasligi tadqiqot natijalariga muayyan darajada ta’sir qilishi mumkin. Shu bois, ushbu cheklovlar e’tiborga olingan holda, tavsiyalar va xulosalar ehtiyyotkorlik bilan ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari tijorat banklarida samaradorlikni baholash tizimini takomillashtirish, amaliy boshqaruv qarorlarini qabul qilishda analitik yondashuvni kuchaytirish, shuningdek, raqobatbardosh bank tizimini shakllantirishda qo‘llanishi mumkin. Shuningdek, tadqiqotda ilgari surilgan ko‘rsatkichlar majmuasi asosida O‘zbekiston bank sektorida milliy baholash modeli ishlab chiqish uchun metodik asos yaratiladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tijorat banklarining moliyaviy samaradorligi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega. Bugungi global moliyaviy muhitda bank tizimining raqobatbardoshligi, ishonchliligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlashda samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash va ularga tahliliy yondashuv bilan baho berish bank faoliyatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston iqtisodiyotida olib borilayotgan keng qamrovli moliyaviy islohotlar, banklarning kapital yetarlilikini oshirish, kredit portfelini diversifikatsiyalash, raqamli texnologiyalarni joriy etish va moliyaviy inkluzivlikni rivojlantirish orqali banklar samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ushbu mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, banklar faoliyatini samarali baholashda klassik moliyaviy ko‘rsatkichlar – foydalilik (ROA, ROE), likvidlik, aktivlar sifatiga oid ko‘rsatkichlar, shuningdek, operatsion xarajatlar va tushumlar nisbati asosiy mezonlardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, bugungi

kunda nafaqat an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlarga, balki innovatsion yondashuvlarga – bank mijozlari ehtiyojlarini qondirish darajasi, xizmatlar sifatini raqamli o'lchov orqali tahlil qilish, xatarlarni real vaqt rejimida baholash kabi indikatorlar ham muhim o'rin egallamoqda. Samaradorlik indikatorlari tizimini modernizatsiya qilish – banklar o'zlarining ichki tahlil metodologiyalarini yangilashi, xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan ko'rsatkichlar (EVA, SVA, CAMELS) asosida baholash tizimini joriy etishi zarur. Raqamli texnologiyalarni bank faoliyatida keng joriy etish – sun'iy intellekt asosida tahlil tizimlarini joriy qilish, mijozlar segmentatsiyasi, risklarni baholash, xizmatlar taklifini optimallashtirish uchun katta ma'lumotlar (big data) tahlilidan foydalanish kerak. Tashqi va ichki audit tizimini takomillashtirish – samaradorlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlashda mustaqil audit va baholash institutlari ishtirokini kengaytirish lozim. Bank xodimlarining kompetensiyasini rivojlantirish – banklar inson resurslariga sarmoya kiritish orqali malakali kadrlarni shakllantirishi va ularni zamonaviy moliyaviy tahlil vositalaridan foydalana olish qobiliyatini oshirishi zarur. Tijorat banklari faoliyatini baholashda ommaviy axborot vositalari va mijozlar fikrlarini inobatga olish – bu bankning obro'sini oshirish, ishonchni mustahkamlash va mijozlar ehtiyojlariga yo'naltirilgan xizmatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish va baholash ularning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash, moliyaviy tizimga bo'lgan ishonchni oshirish hamda investitsion muhitni yaxshilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu maqolada taqdim etilgan ilmiy asoslangan yondashuvlar va takliflar bank sektorini yanada barqaror va raqobatbardosh holga keltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023). *Tijorat banklari moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili bo'yicha hisobot*. Toshkent: MB Matbaa.
2. G'ulomov, S. S., & Egamberdiyev, I. A. (2022). "Bank tizimida samaradorlik va barqarorlik ko'rsatkichlarini baholash usullari", *Iqtisodiyot va ta'lim*, №2(74), 41–47.

3. Hasanov, B. & Tadjibayev, M. (2023). *O'zbekiston bank tizimining rivojlanish istiqbollari*. Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti.
4. Akhmedov, A. & Rakhimova, S. (2024). “Commercial Bank Efficiency in the Digital Age: Analytical Models and Applications in Uzbekistan”, *Central Asian Review of Economics and Finance*, 5(1), 25–39.
5. Karimova, Z. (2022). *Banklarda moliyaviy tahlil va ichki nazorat tizimlari*. Toshkent: Moliya akademiyasi nashriyoti.
6. International Monetary Fund (2023). *Uzbekistan Financial Sector Assessment Program: Technical Note on Banking Sector*. Washington, DC.
7. World Bank Group (2022). *Uzbekistan Financial Inclusion and Digital Finance Report*. Washington, DC.
8. Sayfullaeva, L. & Xamidov, J. (2024). “Tijorat banklari samaradorligini baholash: zamonaviy yondashuvlar”, *Moliyaviy tadqiqotlar jurnali*, №1(16), 56–65.
9. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD) (2023). *Transition Report: Financial Systems Resilience in Central Asia*. London.
10. Soliyev, N. & Bekchanova, M. (2025). “Bank sektorida raqamli transformatsiyaning samaradorlikka ta'siri”, *O'zbekiston iqtisodiyoti: raqamlar va faktlar*, №1, 78–85.